



TIL VA MADANIYATNING UZVIY ALOQADORLIGI

Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi

Ma'mun universiteti, "Roman-german filologiyasi" kafedrası

ingliz tili o'qituvchisi

abdullayevaposhshajon97@gmail.com

Annotatsiya:

Til madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonning atrof-muhitida mavjud bo'lgan real hayot, balki xalqning ijtimoiy o'rni, o'zini anglash usuli, mentaliteti, milliy xarakteri, turmush tarzi, an'analari, urf-odatları va qadriyatları ham aks etadi. Ushbu maqolada til va madaniyat tushunchalarining bog'liqligi, ularni o'rganish masalalari va nazariy asoslari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Til, madaniyat, lingvokulturologiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, ijtimoiy hodisa, qadriyatlar.

Abstract:

Language is a reflection of culture, displaying not only the real life that exists in a person's surroundings, but also the social role of the people, their way of understanding themselves, mentality, national character, lifestyle, traditions, customs and values. This article provides detailed information on the relationship between the concepts of language and culture, the issues of their study and theoretical foundations.

Keywords: Language, culture, lingoculturology, linguistics, cultural studies, social phenomenon, customs.

Аннотация:

Язык является отражением культуры, отражая не только реальную жизнь в среде обитания человека, но и социальную роль народа, его способ понимания себя, менталитет, национальный характер, образ жизни, традиции, обычаи и



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

ценности. В статье подробно рассматриваются взаимосвязь понятий языка и культуры, вопросы их изучения и теоретические основы.

Ключевые слова: Язык, культура, лингвокультурология, языкознание, культурология, социальный феномен, обычи.

Kirish

Til insonlar o'rtasidagi eng muhim muloqot vositasi hisoblanib, til orqali o'z fikrlarimizni bemalol bayon qilishimiz mumkin. Tilning tabiiy yoki ijtimoiy hodisa ekanligi yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ba'zi olimlar uni tabiiy hodisa ya'ni o'z-o'zidan paydo bo'ladi deb hisoblasa, boshqa tilshunoslar tilni ijtimoiy hodisa ekanligini ta'kidlashadi. Til -ijtimoiy hodisadir, chunki u jamiyatda paydo bo'ladi, agar insonlar muloqot jarayonida ushbu tildan foydalanishmasa vaqt o'tishi bilan o'sha til iste'moldan chiqadi va o'lik tilga aylanadi. Shu sababli til jamiyatda paydo bo'ladi va rivojlanadi. Til va madaniyat tushunchalari haqida aytadigan bo'lsak, ushbu ikkita tushuncha o'zaro bog'liqdir. Chunki bir millatning tili o'sha xalq madaniyatini tushunish uchun asosiy kalit bo'lib, madaniyatini bilish esa milliy madaniyatni aniqlash yo'lidir. Madaniyatshunoslarning ta'kidlashicha, til inson tafakkuri va dunyoqarashining muhim bir aksidir. Til madaniy va ma'naviy o'zgarishlarni, insoniyat fikrining rivojlanishini va turli madaniyatlarda umumiy g'oyalar qanday paydo bo'lishini ifodalaydi. Shu bilan birga, madaniy aloqalar, ijtimoiy va madaniy munosabatlarsiz tilning o'zi mavjud bo'la olmaydi, shuningdek til yordamisiz madaniy haqiqatlarni ham ifodalash va anglash juda qiyin. Til leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, og'zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi. U madaniyatni tashuvchi vosita bo'lib, til ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida xalqining boy madaniy tajribasini ham o'zlashtira oladi¹. Madaniyat - bu xalqlarning tarixiy tajribasi natijasida shakllangan va kelajak avlodlarga meros qolishi mumkin bo'lgan urf-odatlar, an'analar, tafakkur, san'at va inson hayot tarzining murakkab mohiyatidir.

¹ Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey' London: Routledge, 1989. - p. 127



Til va madaniyatning nazariy asoslari

Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarning tabiati psixologiya, falsafa, antropologiya va boshqa sohalaridagi olimlar tomonidan ko'plab tadqiqot va mulohazalar mavzusi bo'lib kelgan. Bundan 2500 yil avval, yunonlar bu masalani ko'rib chiqib, dunyoni tafakkur va idrok qilish tildan mustaqil deb ta'kidlagan paytlarda kuzatish mumkin. So'nggi paytlarda bu munosabatlarni o'rganish yuzasidan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda va bu juda ko'p bahs-munozaralarga va butunlay qarama-qarshi fikrlarga sabab bo'ldi. Ushbu bahsli masalani o'rganishga harakat qilgan e'tiborga molik gipotezalardan biri bu Sapir va Uorf gipotezasi bo'lib, unga ko'ra til boshqa ko'plab elementlar bilan o'zaro aloqada bo'lgan oddiy madaniyat elementi emas, balki madaniyatlar paydo bo'ladigan va shakllanadigan manbadir deb e'tirof etiladi.

Til va madaniyatning bog'liqligi, madaniyatning tilda aks etish muammolari bilan bog'liq masalalarning metodologik asosini o'rganish XX asrning oxirlarida boshlandi. Ularning asosi sifatida V.V.Vorobyov, V.A.Maslovalarning ishlarini qayd etish mumkin. Hozirgi kunda insonlar, xalqlar va mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy va ilmiy aloqalar, shuningdek, xalqaromadaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslikda tillarning o'zaro munosabatlari, til madaniyati va milliy xususiyatlar kabi yangi soha - lingvokulturologiyaning rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Lingvokulturologiya, ya'ni lingvomadaniyatshunoslik, XX asrning 90-yillarida paydo bo'lgan yangi fan bo'lib, u tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlarining birlashishi natijasida yuzaga keldi. Ushbu sohaning asosiy tadqiqot obyektlari til va madaniyatdir. Madaniyatshunoslik insonning tarix, hayot, tabiat va ijtimoiy sohalaridagi xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullansa, tilshunoslik esa til orqali insonning dunyoqarashini tahlil qiladi. Ushbu atama lotincha "*lingua*" - til, "*cultura*" - madaniyat va yunoncha "*logos*" - fan, ta'limot so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini hamda ularning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi hodisalarni o'z ichiga oladi.

"Lingvokulturologiya" atamasi dastlab frazeologik maktab asoschilari V.N. Teliya, V.V. Vorobyov, V.A. Maslova va boshqalar tomonidan ilgari surilgan. Ushbu fan sohasining shakllanishi bilan bog'liq fikrlarni mulohaza qilganda, ko'pchilik



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizlari V.F. Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlashadi. Ushbu adabiyotlarda, A.A. Potebnya, L. Vaysgerber, X. Glins, X. Xols, D. Uitni, D.U. Pauell, F. Boas, E. Sepir, B.L. Uorf, G. Brutyan, A. Vejbiskaya va D. Xaymz kabi taniqli tilshunoslarning fikrlari ushbu sohaning rivojida muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan².

O'zbek tilshunoslik ilmida ham lingvokulturologiya yo'nalishida bir qator izlanishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'zbek tilida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslari va madaniyatning tilda qanday aks etishi kabi masalalarni o'rganishga bag'ishlangan dastlabki ishlar sifatida A. Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N. Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", N. Sayidrahimovanning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar" va "Lingvokulturologiyaning komponentlari" nomli maqolalarini, shuningdek, D. Xudoyberganovanning "Matnning atropotsentrik tadqiqi" va Shoxista Maxmaraimovanning "Lingvokulturologiya" mavzusidagi monografiyasini ko'rsatish mumkin. Ushbu asarlarda lingvokulturologiya fanining mohiyati, predmeti va obyekti kabi masalalar o'rganilgan.

Lingvokulturologiya sohasining rivojlanishi

XX asrning boshlariga kelib, lingvokulturologiya jahon tilshunosligida yetakchi yo'nalishlardan biriga aylanishga muvaffaq bo'ldi. Ko'plab tadqiqotlarda aytib ta'kidlanganidek, lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi soha bo'lib, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar uning asosiy predmeti hisoblanadi. Masalan, V.N. Teliya bu haqida shunday fikr bildiradi: "Lingvokulturologiya insoniy, ya'ni shaxs va madaniy omillarni bir butunlikda o'rganadigan fandır"³. G.G. Slishkin esa, "Lingvokulturologiya inson omiliga, xususan, inson madaniyatiga qaratilgan ilmiy yo'nalishdir. Uning madaniyat fenomenini markaziga olishi, lingvokulturologiyaning antropologik paradigmaga bog'liq ekanligini ko'rsatadi"⁴.

² Маслова В.В. Лингвокультуроология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. - М., 1987. Стр 69-70

³ Телия В.Н. Русская фразеология. - М.:1982. - С. 20-25.

⁴ Маслова В.А. Лингвокультуроология. -М.:Академия,2001. Стр 46



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Lingvokulturologiya sohasida muhim tadqiqotlar olib borgan V.V. Maslova ushbu yoʻnalishning rivojini uch bosqichga ajratadi:

- 1) Fan shakllanishiga asos boʻlgan dastlabki tadqiqotlar, jumladan V.F. Gumboldt, E. Benvenist, L. Vaysgerber, A.A. Potebnya va A. Sepir kabi tilshunoslarning ishlarini oʻz ichiga oladi;
- 2) Lingvokulturologiyaning mustaqil soha sifatida ajratilishi;
- 3) Lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi⁵.

Lingvokulturologiyaning rivojida Moskva lingvokulturologik maktablari muhim ahamiyatga ega. Moskva lingvokulturologik maktablari XX asr oxirlarida tashkil topdi. Bu borada rus tilshunoslari Yu.S. Stepanov, N.D. Arutyunov, V.N. Teliya va V.A. Vorobyov kabi olimlar asos solgan bir qator maktablar paydo boʻldi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, til va madaniyat tushunchalari oʻzaro chambarchas atamalardir. Chunki til oʻrganish bilan birgalikda oʻsha xalqning madaniyati, urf-odatlar va adabiyoti haqida ham maʼlumotga ega boʻlamiz. Ushbu tushunchalarning bogʻliqligini oʻrganish yangi soha paydo boʻlishiga asos boʻldi. XIX asrda V. Gumboldt til va tafakkur oʻrtasidagi munosabatlarni oʻrganish jarayonida millat madaniyatiga alohida eʼtibor berish zarurligini taʼkidlagan. Uning bu mulohazalari XX asrning 90-yillarida koʻplab tilshunoslar tomonidan yangi fan, yaʼni lingvokulturologiyaning paydo boʻlishiga olib keldi. Bugungi kunda ushbu fan tilshunoslik sohasida tez surʼatlarda rivojlanib, umumiy tilshunoslikda oʻziga xos oʻrin egalladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey' London: Routledge, 1989. - p. 127
2. Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. - М., 1987.Стр 69-70
- 3.Телия В.Н. Русская фразеология. – М.:1982. – С. 20-25.

⁵ Маслова В.А. Лингвокультурология. -М.:Академия,2001. Стр 53



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

-
4. Маслова В.А. Лингвокультурология. -М. :Академия,2001. Стр 46
 5. Маслова В.А. Лингвокультурология. -М.: Академия,2001. Стр 53
 6. Nursulton Shayxislamov, “Lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari”, academic research in educational sciences volume 2 | issue 1 | 2021
 7. Vorobyev V.V. Lingvokulturologiya. Teoriya i metodi. –М., 1997.